
Batken viloyati gubernatori o'rinbosari boshchiligidagi delegatsiya Rishton tumanida bo'ldi

Bugun Qirg'iziston Respublikasining Batken viloyati gubernatori o'rinbosari Timur Madiyarov, Qizilqiya shahri meri Asilbek Matkalikov, Batken tumani hokimi Uchkun Joroboev, Leylek tumani hokimi Olmos Rahmonqulov, Qadamjoy tumani hokimi Qutpidin Shakirov va tadbirkorlardan iborat delegatsiya Rishton tumanida bo'ldi.

Delegatsiya a'zolari Rishton tumani hokimi Subhonjon Soliev va tuman sektorlari rahbarlari tomonidan kutib olindi.

Batkenlik mehmonlar Rishton kulolchilik sanoat zonasida bo'lib bu yerdagi jarayonlar bilan tanishdilar. Xususan, Mingboshi keramik kulolchilik klasteri tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamdagi ishlar Qirg'iziston delegatsiyasi vakillarida katta taassurot qoldirdi.

Tashrif davomida tadbirkorlar o'zaro hamkorlik borasida ham kelishuvga erishishdi.

Rishton tuman hokimligi axborot xizmati

2022-08-02 18:57:03